



2024-yil. 4-son

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL  
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

# Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

*Navro'zi olam muborak bo'lsin!*



## ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Abduxalil Atamatov. Bo'lajak mutaxassislarda innovatsion faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirishni aniqlash usullari, mezonlari va ko'rsatkichlari.....	93
Shohruh Abdiraimov. O'qituvchilar etikasining ta'lim natijalariga ta'siri.....	95
Nigora Hayitova. Ingliz tilidan murakkabligiga ko'ra darajalangan testlar va ularning asoslari.....	99
Sanjarbek Sheraliyev, Nag'ima Jiyyenbayeva. Raqamlashtirilgan muhitda muhandislik grafikasi fanidan mustaqil ta'limni rivojlantirishda axborot texnologiyalarining o'rni.....	102
Xolida Hamroyeva. Bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik modeli.....	104
Nigora Rustambekova. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish asoslari.....	107
Gulbahor Xolmirzayeva. Oliy ta'lim muassasalari ta'lim jarayonida talabalarning pedagogik tafakkur tamoyillari.....	108
To'xtaxon Akramova. Ona tili darslarida o'yin-topshiriqlarning o'rni.....	111
Madina Alimova. Til o'qitishda zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanishning ahamiyati.....	113
Dilso'z Nigmatova. The importance of educational innovations in improving students' knowledge.....	115
Gulbahor Jumadullayeva. The role of educational cluster in teaching english.....	117
Maftuna Ruzmetova. Modern learning technologies in teaching foreign languages.....	119
Mekhriniso Khuseinova. About term and terminology.....	121
Shokhista Khatamkulova. Didactic foundations for the development of foreign language communicative skills-methodological competence of students of a pedagogical university based on credit-module training technology.....	122
Nodira Salikhova, Nargis Lukmanova. Problems of equivalence in translations and interpretations for special purposes.....	125

## METODIK TAVSIYA

Qobiljon Abdurasulov. O'zbek tilini o'qitishda eshitib tushunish malakasini shakllantirishning metodik tahlili.....	127
---	-----

2024-yil 4-son

e-mail: [tilvaadabiyotuz@gmail.com](mailto:tilvaadabiyotuz@gmail.com)

Maxmuda Yuldasheva. Nasriy asarlarni ijodiy o'zlashtirish imkoniyatlari.....	129
--	-----

## TILSHUNOSLIK

Durdona Xudoyberganova. Kognitiv va konseptual metaforaning antropotsentrik talqini xususida.....	132
Gulnoza Ernazarova. Ma'danshunoslilik terminlari nomlanishining kognitiv mexanizmlari: metaforik usulda termin hosil bo'lishi.....	134
Nifufar Muminova. Sahibqiron va Amir leksemlarining tisoniy va nolisoniy xususiyatlari.....	136

rol o'ynaydi. Qo'shiqlarni tinglashdan oldin o'quvchilar qaysi grammatik vositalarni o'rganish kerakligi ma'lum bo'ladi. Qo'shiqni tinglash bosqichida har xil topshiriqlardan foydalanish mumkin. Masalan: haqiqiy yoki yolg'on ma'lumotlar, qatorlarning ketma-ketligini toping, so'zlarning ma'nodosh yoki zid ma'nosini toping kabi. Lekin bundan tashqari satrlar orasidagi bo'shliqlarni to'ldirish keng tarqalgan usul hisoblanib, bu bo'shliqlar orqali so'zlar, grammatik ko'rsatkichlar aniq ajralib turadi.

formal-semantik yaxlitligini saqlab turadi va so'zlar uning tarkibiy qismi sifatida, ya'ni matn tizimining qonuniyatlariga bo'ysungan element sifatida yuzaga chiqadi. Matnning to'g'ri va to'liq tushunilishi uchun resipient har bir so'zning alohida holdagi ma'nosini yaxshi bilishi muhim. Biroq ma'lum holatlarda resipient uchun notanish bo'lgan so'zning ma'nosi kontekstdan anglashilib turadi yoki tanish bo'lgan so'zning ma'nosi kontekstda boshqa ma'no kasb etishi mumkin. Umuman, alohida so'zning ma'nosini bilish yoki bilmaslik matn tushunish darajalariga ta'sir etadi [2; 93].

Matnning mazmuniy persepsiyasida matn o'z

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimova I. O'zbek tilidagi gazeta matnlarining mazmuniy persepsiyasining psixologik tadqiqi: F.f.n. diss. – T.: O'zMU, 2008. 215-b.
2. – Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2006 y, 200-b.
3. – Nazarova S. O'zbek tili o'qitish metodikasi. (O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi talabalar uchun qo'llanma sifatida tavsiya etgan). – T.: O'qituvchi, 1992– 215-b.
4. – Ushakova N. Listening as one of the ways to teach a foreign language to foreign students. – Ukraina: Kharkiv National Automobile and Highway University 2020. p 438-440.
5. – Ushakova N. Listening as one of the ways to teach a foreign language to foreign students. – Ukraina: Kharkiv National Automobile and Highway University 2020. P 438-440.
6. – Маркова А.К. Формирование мотивация учения в школьном возрасте. Пособие для учителя. – М.: Просвещение, 1983 г. 96-204 с.
7. – Murodova A. 5-sinf o'quvchilarida eshitib tushunish malakasini shakllantirishning nazariy va metodik asoslari: Mag.diss.–T., ToshDO'TAU, 2020. 15-22-b.

Maxmuda YULDASHEVA  
ToshDO'TAU tayanch doktoranti

## NASRIY ASARLARNI IJODIY O'ZLASHTIRISH IMKONIYATLARI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o'quvchiga asarni faqatgina o'qitish, qayta so'zlatish bilan singdirish juda murakkabligi, har bir o'rganilayotgan badiiy asarni turli xil metod va usullar, didaktik o'yinlar bilan qiziqarli qilib tahlilga tortish haqida fikr yuritiladi. Adabiyot darslarida nasriy asarlarni o'qitishda evristik usullardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu usullarni darsning har xil bosqichlarida, turli maqsadlarda qo'llash mumkin. Ya'ni yangi asarni bayon etish, mustahkamlash, takrorlashda, uyga berilgan topshiriqlarni, mustaqil ishlarni tekshirishda qo'llash mumkin.

**Kaliit so'zlar:** ijodkorlik, ijodiy faoliyat, evristik usul, interfaol metod, zamonaviy pedagogika, innovatsion usullar, ijodiy faollik, evristik ta'lim, ijodiy topshiriq, epik asarlar.

**Annotation:** in this article, it is very difficult to teach the work to the student only by teaching and retelling, it is very difficult to analyze each studied work of art with various methods and methods, didactic games. The use of heuristic methods in teaching prose works in literature classes has a good effect. These methods can be used at different stages of the lesson and for different purposes. That is, it can be used to explain, strengthen, repeat a new work, check homework assignments, independent work.

**Key words:** creativity, creative activity, heuristic method, interactive method, modern pedagogy, innovative methods, creative activity, heuristic education, creative task, epic works.

**Аннотация:** в этой статье очень сложно научить ученика произведению только путем обучения и пересказа, очень сложно анализировать каждое изучаемое художественное произведение с помощью различных приемов и методов, дидактических игр. Хороший эффект дает использование эвристических методов при обучении прозаическим произведениям на уроках литературы. Эти методы можно использовать на разных этапах урока и для разных целей. То есть его можно использовать для объяснения, закрепления, повторения новой работы, проверки домашних заданий, самостоятельной работы.

**Ключевые слова:** творчество, творческая деятельность, эвристический метод, интерактивный метод, современная педагогика, инновационные методы, творческая деятельность, эвристическое обучение, творческая задача, эпические произведения.

O'quvchilarda ijodga moyillikni tarbiyalash, rivojlantirish borasida turli amaliy mashqlarni qo'lladik. Respublikamizdagi ijod maktablari o'quv dasturiga kiritilgan nasriy asarlar bilan tanishtirishda nafaqat matnni o'qib tushunish, so'zlash, o'qish yoki yozish, balki uning g'oyasi, muallifning badiiy niyati, obrazlar tizimi, obraz va obrazlilikka munosabat bildirish orqali hissiy zavqlanish, ma'naviy sifatlarini o'stirishga daxldor tahlil kompetensiyalari ham nazarda tutiladi. Bu borada metodist olim Q.Yo'ldoshevning quyidagi so'zlari fikrimizni tasdiqlaydi. "O'quvchi va talabalarni shunchaki muammo yuzasidan bahsga tortish kerak emas, balki ularning butun intellektual kuchi tekshirilayotgan badiiy matnning mag'zini chaqishga yo'naltirilgan bo'lishi tozim".[1] Ijod maktablarining 7-11-sinf o'quvchilarini ijodkorlikka yo'naltirish ishlari turli shakllarda tashkil etilishi mumkin. O'quvchilarda ijodkorlik kompetensiyasini shakllantirish bir qator ish-

usullarini tizimlashtirishni talab etadi. Ijod maktablari "Adabiyot" darsliklarida epik turga mansub deyarli barcha janrlarga murojaat qilingan. O'rganish uchun darslikka kiritilgan epik turga mansub bu asarlarning barchasi voqealarning izchil bayoniga hamda tasvirda tafsilotlarning ustuvorligiga va bir qator obrazlar tizimiga ega. Shu o'rinda biz dars jarayonida nasriy asarlarni o'rgatishda va o'zlashtirishda foydalanish uchun bir qancha evristik usullarni tavsiya qilamiz.

"Mening shaxsiy fikrim" usulini 11-sinf darsligidagi Zulfiya Qurolboy qizining "Yoqsiz yil" hikoyasi misolida ko'rib chiqsak. O'qituvchi tomonidan o'quvchilarga avvaldan tayyorlangan jadval tarqatiladi va quyidagi savollarga javob bergan holda jadvalni to'ldirish topshirig'i beriladi.

Savollar: Asar qahramonining fe'l-atvoridagi qaysi xususiyatlarni oqlaysiz, qaysi jihatlarini yoqlamaysiz?

### "Yoqsiz yil" hikoyasi

Oqlayman		Yoqlamayman	
Asar qahramoni	Sababi	Asar qahramoni	Sababi

Bu jadvalni har bir o'quvchi o'z shaxsiy mulohazalari, asar qahramonlari fe'l-atvori hamda xatti-harakatlariga munosabatini yozadilar. Bu usul orqali o'quvchilarning fikrlash jarayoni va izlanish faoliyatini rivojlantirishga erishiladi.

Yana bir o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, asar g'oyasi va tilini yaxshiroq tushunishga ko'mak beruvchi usulni ijod maktablarining 11-sinf adabiyot darsligida o'tilishi ko'zda tutilgan Najib Mahfuzning "O'zgaralar uchun yasha" hikoyasi orqali ko'rib chiqamiz.

"45 daqiqalik yo'l" usuli. Bu usulda o'quvchilar 45 daqiqa ichida asar syujetini to'liq tarkibiy qismlarga ajratib chiqadilar. Bu jarayonda quyidagi jadvalni to'ldirish topshirig'i beriladi:

Syujet elementlari	Najib Mahfuzning "O'zgaralar uchun yasha" hikoyasi
Prolog	
Ekspozitsiya	
Tugun	
Voqealar rivoji	
Kulminatsiya	
Yechimlar	
Epilog	

Jadvalda o'quvchilar hikoyani yuqoridagi syujet elementlari bo'yicha tarkibiy qismlarga ajratib chiqadilar.

Adabiyot darolarida o'quvchilarning ijodiy individualligini oshirishga xizmat qituvchi yana bir usul bu "Kakografiya" usulidir. "Kakografiya" lotincha so'z bo'lib, "kakos" – yomon, xunuk, yoqimsiz va "graphos" – yozmoq so'zlaridan olingan. Bu usulni adabiyot darslarida 2-xil qo'llash mumkin:

— **1-usul:** bunda asardan olingan parcha matnida tushirib qoldirilgan so'zlar ya'ni shaxs yoki joy nomlarini topish sharti beriladi.

— **2-usulda** esa – asardan olingan parcha matnidagi almashtirilgan so'zlar, masalan, insonga xos harakat yoki holatning asl variantini o'rniga qo'yish vazifasi yuklatiladi.

— Bu har ikki usulni 9-sinf adabiyot darsligidagi Nazar Eshonqulning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hamda 10-sinf adabiyot darsligidagi Frans Kafkaning "Evrilish" hikoyalari misolida ko'rib chiqsak.

— **1-usul:** Asardan olingan parcha matnida tushirib qoldirilgan so'zlar ya'ni shaxs yoki joy nomlarini topib, jadvalni moslashtiring.

So'zlar	Matn		
1 mlrshab	A	... unga o'qrayib qaradi va ko'zlarida birdan alam yondi.	
2 Bayna momo	B	Chorsining yirtig'iga pala-partish o'rab tashlangan o'nta ...ham topildi.	
3 qishloqdosh	D	Qish paytlari g'amlab qo'ygan o'tini yetmagan kunlari u ko'rpaga oyog'ini tiqqancha ...siga isinib jon saqlardi.	
4 Zamon otboqar	E	...lari bahor kelishi bilan eski yaylovlarga ko'chib chiqishar va yer shudgorlar, har kim o'z tashvishiga berilib ketardi.	
5 Rayim polvon	F	... lar Rayim polvonning qo'radagi podasi-yu otlarini haydab ketishdi.	
6 odam barmog'i	G	... tirikligida hammaning maslahatgo'yi bo'lgan, uyi hamisha mehmonlar bilan to'lib-toshgan.	
7 xotira	H	... ning o'limidan so'ng ham qishloqdoshlari bilan ilakishib ketolmadi.	

**2-usulda** esa 10-sinf darsligida berilgan Frans Kafkaning "Evrilish" hikoyasidan olingan parcha matnidagi almashtirilgan so'zlar, masalan, insonga xos harakat yoki holatning asl variantini o'rniga qo'yib ko'chiring.

Gregor tashqariga chiqdi. Tund havo, deraza tokchasiidagi tunukaga urilayotgan yomg'ir tomchilari kayfiyatini battar ko'tarib yubordi. "Yana jinday kutsam yaxshi bo'lardi. Har xil bema'ni narsalarni yo'qotish kerak", – deb aytdi u. Ammo endi sakrash oson emas edi. U doim o'ng yonboshini bosib turishga ko'nikkan, ammo hozirgi ahvolda yonboshga qarash amrimahol edi. Gregor qancha kulmasin, yana chalqanchasiga ag'darilib yotaverdi. Tinimsiz tipirchilayotgan oyoqchalarini yo'qotmaslik uchun ko'zini ochib, yonboshiga qaramoq uchun yana bir urinib ko'rdi. Butun kuchini to'plab harakat qildi – bo'lmadi. Nihoyat o'ng

biginida o'ziga notanish bir og'riqni, so'niq simillayotgan og'riqni unutdi-yu harakatdan charchadi.

— Foydalanish uchun so'zlar: qaradi, uxlash, ko'rmaslik, tushirib, uxlasam, unutish, o'yladi, yotishga, o'girilish, urinmasin, tushaverdi, yumib, yotmoq, sezdi, to'xtadi.

— Adabiyot darsida o'qituvchilar o'quvchilariga yuqorida keltirilgan namunadagidek evristik xarakterdagi topshiriqlarni imkon qadar ko'proq taqdim etishlari kerak. Olib borilgan kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, o'quvchilar bilan muntazam tarzda evristik topshiriqlar ustida ishtash ularning matematika, ona til kabi o'quv predmetlariga bo'lgan qiziqishlarini oshirish bilan bir qatorda aqliy, ijodiy hamda o'quv faolligini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

— Tabiiyki, evristik ta'lim an'anaviy ta'lim o'rni to'liq egallay olmaydi, tekin undan o'quvchining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun an'anaviy usullarga qo'shimcha sifatida foydalanish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo'ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: "Kamalak", 2016. 97-b.
2. —To'xliyev B: Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2006. 74-b.
3. —Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi/o'quv qo'llanma/. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2020.
4. —Mirqosimova M: O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari: Ped.fan.dok. ...diss. – Toshkent: 1995.
5. —Yo'ldoshev Q. Jilovlanmagan tafakkur mahsuli. – Toshkent: "Tafakkur", 2023.